

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TA'LIMDAGI O'RNI

Xoldorova Ma'mura Zarifovna

Termiz shaxar kasb-hunar maktabi

Informatika va Axborot texnologiyasi fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, Kundan kunga kishini hayratga soladigan yangiliklar yaratilayotganligi, axborot texnologiyalaring jadal rivojlanishi haqida so'z boradi.

Kalit so`zlar: axborot texnologiyalari, kompyuter, rivojlanish, yangilik, imkoniyat, o'zgarishlar, kashfiyotlar.

XXI asr - texnika va texnologiya asri. Ha, bu nom bejizga berilmadi. Atrof-muhitda sodir bo'ladigan hodisalar uni o'rganishga bo'lgan qiziqishni yanada orttirdi. Bu qiziqish ortidan ilm-fan sohasida misli ko'rilmagan kashfiyotlar paydo bo'ldi va paydo bo'lmoqda. Kundan kunga kishini hayratga soladigan yangiliklar yaratilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat. Shu kabi axborot-kommunikasiya texnologiyalari uch yo'nalishda ilgari bo'lмагan juda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tish imkon beradi:

1) Bilimlarni egallash yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish natijasida ta'lism olish yo'lidagi inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Agar ta'lism kognitiv ko'nikmalarini rivojlantrishga olib kelsa, axborotlar bilimlar to'plash jarayonining mazmunli jihatini ta'minlash uchun kerak b'ladi. Internet va «Butun jahon tarmog'i» barcha ijtimoiy qatlardagi insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo'lib xizmat qiladi.

2) Ijtimoiy hayotda ishtirok etish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Internet tarmog'i orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyati oxirgi yillarda ko'plab global fuqarolik tashabbuslarini tarqatishga imkon berdi. Misol uchun, ta'lism tizimida qayta aloqani ta'minlash harakati.

3) Iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va ular bilan bog'liq sohalar hamda ta'lism tizimi eng jadal rivojlanayotgan sektorlar hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborotlar va aloqadan foydalanish imkoniyatini keskin kengaytiradi. Elektron pochta, elektron kutubxonalar – saytlar ta'lism tizimi uchun cheksiz imkoniyatlar beradi, har qanday chegaralarni yo'qotadi, dunyoning har qanday nuqtasidan o'quv va ilmiy axborotlarni olish imkonini yaratadi.

Informatika o'quv predmeti sifatida informatika fani va uning rivoji bilan uzviy bog'liq. SHuning uchun «Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish nazariyasи va metodikasi» fani birinchi navbatda informatika fanining metodologiyasiga asoslanadi. O'zining xulosalarida u ta'lism va tarbiyaning umumiy tamoyillariga tayanadi. Ma'lumki, ushbu tamoyillar pedagogika va didaktika tomonidan ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, «Informatika va

axborot texnologiyalarini o'qitish nazariyasi va metodikasi» fani fiziologiya va psixologiya fanlari tomonidan qabul kilingan qonuniyatlardan ham bevosita foydalanadi.

Ta'limgan tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri b'lgan informatikaning fan sifatida o'ziga xosligi, uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyatidan, hozirgi jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda «Informatika» fanini o'qitishning maqsadlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- o'quvchilarda kompyuter savodxonligini shakllantirish;
- o'quvchilarda axborotga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli o'zlashtirib olishlarini ta'minlash;
- o'quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy ko'rinishini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahamiyatini, jamiyatning rivojida yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalarning ahamiyatini ochib berish;
- komp'yuterlardan ongli va ratsional foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ta'limganda informatika va axborot texnologiyalari o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi – o'sib kelayotgan avlodni zamonaviy axborot texnologiya vositalari bilan ishlash malakalari, mustaqil, mantiqiy va algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat va olgan bilimlarini hayotda tatbiq etishga o'rgatishdan iborat.

Ta'limganda informatika va axborot texnologiyalari ta'limingning asosiy vazifalari:

- o'quvchilarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularni amaliyotda qo'llash haqida bilimlar berish;
- kompyuterda masalalar yechish texnologiyalari va asosiy bosqichlarini ketma-ketlikda to'g'ri bajara olish;
- algoritmik tuzilmalarini, algoritmlash va dasturlash asoslari haqida bilim berish;
- kompyutering dasturiy ta'minoti va ularning imkoniyatlarini ajrata bilish hamda amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish;
- o'quvchilarni aqliy rivojlantirish, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini o'rgatib borish orqali ularda umuminsoniy qadriyatlarga rioya etishni rivojlantirishga qaratilgan va ta'limgan tarbiya olishning keyingi bosqichlarida davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish.

Informatika fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni taminlash maqsadida informatika fani yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Kompyuter texnikalarini talim muassasalariga tatbiq etish, o'qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo'l ochib beradi. Keyingi o'n yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'naliishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamidabilimni baholash, turli tipdagi o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish varivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o'yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi.

Informatika o'qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo'naliishi ayrim o'quv holathlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirilishi qiyin bo'lgan

materiallarni tushunarli bo'lishini taminlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o'quvchilarga malumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasi ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo'ladilar.

Shu o`rinda shuni aytish joizki, O`sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy - mafkuraviy jihatdan tarbiyalash ishi faqatgina ta'lif muassasalaridagina olib borilib qolinmaydi. Balki, bu ish umumjamiyat miqyosida amalga oshiriladi. Bu jarayonda axborot texnologiyalari, intarnat tarmogi, oila, mahalla, xuquqiy tashkilotlar, ma'naviy - mafkuraviy markazlar, ijtimoiy institutlar, mehnat jamoalarining orni ham beqiyosdir.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. 1. Ahmedov A., Taylaqov N. Informatika. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlar uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2002.
2. «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» T.X.Holmatov, N.I.Tayloqov. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti 2001 y.
3. «Informatika va axborot texnologiyalar» A.Sattorov. Toshkent "O'qituvchi" -2002.
4. "Kompyuter bilan muloqotni o'rganamiz" Sh.Narimov, M.Najmuddinov. Toshkent "Moliya" - 2002 y.